

“REZAVOR MEVALARNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ZARARKUNANDA TURLARI”

S.Sh.Ahmadjonova - Fardu, katta o`qituvchisi (PhD)

b.f.d G`aniyev Kamolladdin

Normatov Zuhridin Faxriddin o`g`li

Fardu II bosqich magistanti

Annotatsiya: Maqolada Farg`ona vodiysi sharoitida rezavo`r mevalarning ko`paytirilish usullari va zarakunandalari haqiha to`xtalib o`tilgan.Umdan tashqari rezavor mevalar zarakunandalari xususiyatlari tahlil etoigan.

Tayanch iboralar: rezavor,maymunjon,qulupnay, tunlamlar,quyruqli buzoq boshi,gamma tunlami,ildiz shiralari.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo miqyosida rezavor mevalar yetishtirsh hajmi 7-8 mln tonna bo`lib,shundan 4 mln tonnaga yaqini qulupnay tashkil qiladi.Qulupnay (Fragarla spp) yetishtirish bo`yicha jahonda AQSH yetakchilik qilib, 825 ming tonna hosil olinadi.Ispaniya 305 ming tonna, Yaponiya 209 ming tonna, Janubiy Korea 203 ming tonna qulupnay yetishtiradi.Yevropada esa Pol`sha va Fransiya yetakchilik qilib, ular har yili 180-100 ming tonna mahsulot oladi.Ayrim mamlakatlarda qulupnay yetishtirish hajmining bugungi kun talabiga mos kelmasligi bu-serhosil,turli muddatlarda pishadigan remptant,istiqbolli navlarning kamligi hisoblanadi.¹

AQSH (Kaliforniya), Pol`sha, Yaponiya, Fransiya mamlakatlarida qulupnay o`stirishning maqsadli yo`naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining samaradorligini oshirishga,ishlab chiqarishda serhosil, biokimyoviy tarkibi yaxshi,mevaning Tovar hususiyati yuqori,universal,iste`mol qilishga va qayta ishlashga yaroqli,past haroratga,kasalliklarga chidamli,ochiq va himoyalangan maydonlarda o`shish xususiyatiga ega navlar ustida izlanishlar olib borilmoqda.²

O`zbekistonda qulupnay yetishtirish hajmining pastligi sabab navlar sortimentida yuqori hosildor,issiqqa chidamli,intensiv,rivojlanish jarayoni qisqa, mevalarning yuqori tovarliligi va universal qayta ishlash xususiyatlarga ega navlar va gibridlarning yo`qligidir.O`simlik sortimentini shunday navlar bilan boyitish,ularning o`stirish texnologiyasini takomillashtirishrespublikamiz qishloq ho`jaligi sohasida

¹ Kimsanboyev X.X.,Sulaymonov B.A.,Anarbayev A.R.,”Biotsenozda o`simliklar z ega navlar va gibridlarningararkunandalari parazit entomofaglarini rivojlanishi”.”O`zbekiston”NMIU,-2016

² Olimjonov R.A.,Entomologiya.”O`qituvchi”,-Toshkent.1977

dolzarb masala hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining 3-ustuvor yo'nalishida belgilangan "...yuqori mahsuldorlikka ega, kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy tuproq- iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq ho'jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini yaratish va ishlab chiqishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish" vazifasi bilan qishloq ho'jaligini, ayniqsa, mevachilik va uzumchilikni yanada rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. Ichki bozorni o'zimizda yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish, meva-rezavor mevalarning serhosil navlarini joriy etish, past rentabelli paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hisobiga oshirish masalasi qo'yilgan.³

Respublikamizdagi mevali va rezavor o'simliklar ichida qulupnay, qoraqat va malina yuqori hosil berishi, shuningdek, mevasi o'ta mazaliligi, dorivorligi bilan ajralib turadi. Bu o'simliklar juda erta uyg'onishi bois, erta bahordanoq ularning qator oralari yumshatilib, mineral o'g'itlar hamda organiklar bilan oziqlantiriladi. Qulupnay hosildorligi tuproqni ko'klamgi yumshatish vaqtiga bog'liq bo'lib, tuproq qanchalik erta yumshatilsa, hosil ham yuqori bo'ladi. Qulupnay juda nozik va zararkunandalarga moyil ekin hisoblanadi. Hatto o'simliklarni kasallik va hashorotlardan o'z vaqtida parvarish qilish va davolash ham mo'l hosil olishingizga to'liq kafolat bermaydi. Bu ekin zararkunandalari qatoriga eng avval hammaxo'r hashorotlardan ildiz kemiruvchi tunlamlar, quyruqli buzoq boshi, gamma tunlami, ildiz shiralari, shuningdek, shilliq qurtini kiritish mumkin. Ammo bu reza meva o'simligining o'ziga moslashgan zarrakunandalari ham bor. Bularga qulupnay bargxo'ri va qulupnay uzunburuni misol bo'ladi.⁴

Hashorotlarga qarshi kurashish uchun urug' ekish davridan toki hosil yig'ib olingungacha bo'lgandavrda turlicha kurashish usullaridan rejali ravishda foydalaniladi. O'simliklarni himoya qilish chora-tadbirlari zararli organizmlarning biologiyasini puxta o'rganish va ular sonining belgilangan iqtisodiy xavfli chegarasini hisobga olib amalga oshirish lozim. Agrobiotsenozda fitofag va entomofaglar o'zaro muvozanatini tiklash, foydali turlarini o'rganish, qo'llash qo'llamaning asosiy maqsadlaridan biridir.⁵

³ Сухорученко Г. И., Смирнова А., Митрофанов В. Б. и др. Рекомендации по рациональному чередованию инсектицидов, акарицидов и биопрепаратов в борьбе регистрентными популяциями вредителей хлопчатника. ВИЗР.-Л., 1985 ю-С. 34.

⁴ Kimsanboyev X.X., Sulaymonov B.A., Anarbayev A.R., "Biotsenozda o'simliklar z ega navlar va gibridlarning arakunandalari parazit entomofaglarini rivojlanishi". "O'zbekiston" NMIU, -2016

⁵ M. Raxmonova-Andijon qishloq ho'jaligi va agrotexnologiyalar institute "O'simliklar va qishloq ho'jalik mahsulotlari "

O'simliklarni zararkunanda ,kasallik va begona o'tlardan biologik himoya qilish ekinlar hosildorligini oshirish,ekologik toza mahsulot yetishtirish,bioxilma-xillikni saqlash dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-son "2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami.- 2017.-№6.70 modda
2. Kimsanboyev X.X.,Sulaymonov B.A.,Anarbayev A.R.,"Biotsenozda o'simliklar navlari va gibridlarning zarkunandalari parazit entomofaglarini rivojlanishi"."O'zbekiston"NMIU,-2016
3. Olimjonov R.A.,Entomologiya."O'qituvchi",-Toshkent.1977
4. СухорученкоГ.И..Смирнова А.,Митрофанов В,Б.и др,Рекомендации по рациональному чередованию инсектицидов,акарицидов и биопрепаратов в борьбе регистентными популяциями вредителей хлопчатника.ВИЗР.-Л.,1985.- С.34.